

MUZORABA SAVDOSI MOHIYATI VA UNING SHARTLARI

Zikirov Muhammad

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada islom diyorlarida keng tarqalgan muzoraba savdosi haqida ma'lumotlar beriladi. Muzoraba savdosining shartlari, ruknlari va ko`rinishlari keltiriladi. Qolaversa, muzoraba savdosining tarixi va bu savdo turining joizligiga Qur'oni karim va hadisi shariflardan dalillar keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *muzoraba, ro'sul mol, robbul mol, muzorib, ijob va qabul*

ПРИРОДА МУЗАРАБСКОЙ ТОРГОВЛИ И ЕЕ УСЛОВИЯ

Зихиров Мухаммад

магистрант 1 курса Международной исламской академии Узбекистана

Аннотация: *В данной статье представлена информация о широком использовании музараба в исламских странах. Приведены сроки, условия и формы торговли музараба. Кроме того, история торговли музараба и законность этого вида торговли приведены в Коране и хадисах.*

Ключевые слова: *музараба, ра'сул мол, раббул мол, музариб, иджаб и принятие.*

THE NATURE OF MUZARABA TRADE AND ITS CONDITIONS

Zikhirov Mukhammad

1st year master's degree student of international islamic academy of Uzbekistan

Annotation: *This article provides information on the widespread use of muzarabah in Islamic lands. Terms, conditions and forms of Muzaraba trade are given. In addition, the history of the Muzaraba trade and the legitimacy of this type of trade are given in the Qur'an and Hadith.*

Keywords: *muzaraba, ra'sul mol, rabbul mal, muzarib, ijob and acceptance.*



Islom dini jamiyatdagi har jabhada o'z normalarini joriy qilar ekan, insonlar ehtiyoji, ularning xususiyatlari va voqelikdagi holatni hisobga olishi hammaga ma'lum. Jamiyatdagi biror soha yo'qki, inson qaysi yo'ldan yurishini shariat belgilab bermagan bo'lsa.

Muomulot(ibodatlardan boshqa masalalar) masalalari jamiyat hayotining asosini tashkil qiladi. Shu sababli fiqhiy kitoblarda eng kata bo'lim muomulot bo'limi hisoblanadi. Shu masalalarning eng katta qismi savdoga bog'liq masalalardir. Bundan tashqari, dunyo rivojlangani sari, globallashuv jarayoni savdoning yangi turlari yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shu va boshqa sabablar muomulot masalalarida yangi tadqiqotlarni olib borishga ehtiyoj tug'dirmoqda.

Ushbu hozirgi asrimizda muzoraba savdosiga ehtiyoj juda kuchaymoqda. Muzoraba savdosining asli nima. Uning shartlari va xususiyatlarini o'rganish maqsadga muvofiq.

“Muzoraba” so'zi lug'atda: “Zarbun((ضرب) o'zagidan olingan bo'lib, asl ma'nosi “urmoq” ni bildiradi. Arab tilida “zarbun” so'ziga ba'zi so'zlarni qo'shish orqali ma'noda o'zgarish yuz beradi. Masalan, “Muzoraba” so'zi “hissa qo'shish, safar qilish” ma'nolarini bildiradi.

Istilohda esa:

“Foydada ma'lum bir foydaga sherik bo'lish uchun sarmoya egasi biror shaxsga o'z molini tijorat qilish maqsadida berishi – muzoraba” deyiladi. Muzoraba savdosi Iroqda “muzoraba” deyilsa, Hijozda qiroz deyiladi. Bundan tashqari muzoraba “muomala” deb ham ataladi.

Johiliyat davrida muzoraba savdosidan foydalanilganligi haqida ma'lumotlar kelgan. Misol uchun Abbas ibn Abdulmuttalib mollarini muzorabaga bergani keltirilgan. Xususan, Payg'ambarimiz alayhissalom hadislarida ham muzorabaga savdo qilish yaxshiligi keltirib o'tilgan. Nabiy alayhissalom yigitlik davrlarida Xadicha roziallohu anhoning mollari bilan Shom shahriga borib, muzoraba qilganlarini risolat kelgandan keyin xabar berganlar.

Sahobalar muzoraba bilan shug'ullanishar, ulardan birortasi bu ishga qarshi chiqishmas edi. Turli asrlarda muzorabaning joizligiga butun ummat ijmo qilgan.

Qur'oni karim oyatlarida muzorabaga dalolat qiluvchi oyatlar bir qancha bo'lib, ulardan ba'zilarini ko'rib o'tsak:

﴿ ٢٠﴾ اللَّهُ أَفْضَلُ مِمَّنْ يَبْتَغُونَ لَأَرْضاً فِي يَضْرِبُونَ نَوْرُخَاءِ﴾

” ...va boshqalari yer yuzida yurib, Allohning fazlini axtarishini...” (Muzzammil 20-oyat). Ushbu oyat shariatga mos keluvchi ishlarga ijizat hisoblanadi. Muzoraba ham shu fazlni ichiga kiradi.

﴿ ٩٨﴾ اَرَبَّكُمْ مِّنْ فَضْلًا تَبْتَغُواْ اَنْ جُنَاحَ عَلَيَكُمْ سَيَّلِ﴾



“Sizga o‘z Robbingizdan fazl istashingizda gunoh yo‘qdir”. Bu yerda ham shu ma‘no tushuniladi.

Hadislarda ham muzorabaga misollar kelgan. Masalan:

Ibn Abbos roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Abbos ibn Abdulmutolib mollarini muzorabaga bersa, muzoribga u bilan dengizga, vodiya tushmaslikni va unga tirik jigar egasi bo‘lgan dobbani sotib olmaslikni shart qilar edilar. Agar ulardan birortasiga ushbu ishlarga qo‘l ura (va mol halok bo‘lsa), to‘ lashlikni shart qilardi. U zotning ushbu shartlari Rasululloh alayhissalomga aytili. Bas, u zot ijozat berdilar”. (Bayhaqiy rivoyati).

Suhayb roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Uchta narsada Baraka bor: 1 Nasiyaga savdo qilishda; 2 muqoraza(muzoraba) da, 3 sotishga emas uyda iste‘mol qilish uchun arpa va bug‘doyni aralashtirishda”.

Endi muzorabaning turlariga kelsak, muzorabaning ikki turi mavjud:

1. Mutlaq. Bunda sarmoyador pul olgan kishining faoliyatiga aralashmaydi. Balki, to‘laligicha undan foydalanishga qo‘yib beradi

2. Muqayyad. Sarmoyador bir qancha talablar qo‘yish huquqiga ega bo‘ladi. Masalan, faqat olma sotasan, yoki faqat shu hududda savdo qilasan deb ma‘lum shartlar qo‘yishi mumkin.

Muzorabaning rukni esa ijob(taklif berish) va qabul(rozilik bildirish) bo‘lib, bunda birinchi tarafdin shu ishni taklif qilish va ikkinchi tarafdin rozilik berish bilan amalga oshadi.

Muzorabaning shartlarining ba‘zilari ikkala tomonga ham tegishli bo‘ladi, ba‘zilari faqat sarmoyaga, boshqalari esa chiqqan foydaga tegishli bo‘ladi. Sarmoya egasi(Robbul mol) bir kishi yoki bir necha kishi bo‘lishi mumkin. Sarmoyadan foydalanuvchi(muzorib) ham bir yoki bir necha kishi bo‘lishi mumkin. Muzorabaning shartlari:

1. Tomonlar vakil bo‘lishga va vakil qilishga layoqatli bo‘lishi kerak. (Musulmon va boshqa din vakillari muzoraba qilishi mumkin)

2. Muzorabaga tikilgan mablag‘(ro‘sul mol) tilla, kumush yoki iste‘moldagi qog‘oz pul bo‘lishi kerak, (ko‘chmas mulk muzorabaga qo‘yilmaydi).

3. Sarmoya miqdorining tayin bo‘lishi.

4. Sarmoya naqd bo‘lishi (qarz bo‘lmaydi).

5. Sarmoyador sarmoyani muzoribning qo‘liga topshirishi kerak

6. Foydada tomonlar nisbatlarga ko‘ra sherik bo‘lishlari kerak (sarmoyadan ma‘lum bir qismi oylik qilinsa, muzoraba fosid bo‘ladi).



7. Foyda nisbatlarga ko'ra taqsimlanib, tomonlardan birortasiga ma'lum bir summa tayin qilinmasligi kerak.

Muzorabaning shar'iy hukmlari quyidagilar:

1. Sheriklik muzoraba joizdir. Bunda muzorib o'zining xos mollarini muzorabaga qo'shib yuboradi. Natijada u sarmoyada ham sherikka aylanadi.

2. Muzoriblar bir nechta bo'lishi mumkin. Bunda foyda ularning tajribasi va amaliga qarab teng yoki har xil taqsimlanadi.

3. Sarmoyador ma'lum qaydlarni belgilashi mumkin.

4. Muzorib tijorat urfiga ko'ra ijara yollashi yoki o'ziga xodim yollashi ham mumkin.

5. Muzorib sarmoyani biror kishi huzurida omonatga qo'yishi yoki o'zi bilan safarga olib chiqishi ham mumkin.

6. Sarmoya omonat hisoblanadi. Agar mol uning haddidan oshishi yoki beparvoligi bo'lmasdan, boshqa sabab bilan talofatga uchrasa, molni to'lab bermaydi.

7. Muzorib muzoraba molidan biror narsani qarz yoki ehson qilishga haqqi yo'q. Agar sarmoyador ruxsat bersa joiz.

8. Muzorib muzoraba molidan "ibzo" qilishi mumkin. Ibzo – biror kishiga qaysidir shahardan Tovar sotib olishi uchun mol berishdir. Shunda muzorib ishi uchun evaz olmaydi.

9. Muzorib faqatgina sarmoyadorning ruxsati bilan foyda (ribh)dan ulushini olishi mumkin. Sarmoya to'ldirilmaguncha foydadan ololmaydi.

10. Agar muzorabadagi savdo zararga yuz tutsa, uchinchi tomondan zarar qoplanishi mumkin. Bunda faqat ro'sul mol to'lab beriladi. Foyda emas.

11. Sarmoyadorga tayinlangan foydadagi ulush sarmoyaning ko'payishi bilan o'zgarishi mumkin.


Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, muzoraba savdosi o'ta aniq shartlar ustiga bino qilingan savdo turi bo'lib, ushbu savdo to'la islom qonunchiligiga asoslangandir. Bundan maqsad esa savdolashayotgan ikki tomonning manfaatlari poymol bo'lmasligidir va harom yo'l bilan mol to'plamaslikni joriy qilishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Asosiy adabiyotlar:

1. Bekkin R.I. Islom iqtisodiy modeli va zamon [Matn] / R.I.Bekkin. – Toshkent:«O'zbekiston» NMIU, 2019. – 390 b.





2. Sudin Xorun. Islomiy moliyalar va bank tizimi. Falsafasi, tamoyillari va amaliyoti. – Toshkent:«O‘zbekiston» NMIU, 2014. – 494 b.

3. Baydaulet Ye.A. Islomiy moliya asoslari. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2019. – 428 b.

4. Abdul Azim Islahi. History of Islamic Economic Thought Contributions of Muslim Scholars to Economic Thought and Analysis // Edward Elgar Cheltenham, UK, 2014. – 125 p.

5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Savdo, ziroat va vaqf. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008.

Internet adabiyotlari:

1. <http://fiqh.uz/index.php/ibodat/moliya/savdo/669-shirkat-va-muzoroba%C2%A0>

2. <https://arroziy.uz/uz/news/110>

3. <https://t.me/s/IslomMoliyasi/301>

